

**DEVID LOJNING “SMALL WORLD” ROMANIDA GLOBAL
AKADEMIK MAKON VA ILMIY RAQOBATNING BADIY TALQINI**

Ortiqova Mahliyo O‘tkirovna
Teacher at Department of Applied
Aspects of the English Language,
Faculty of English Philology,
Uzbekistan State University of World Languages
99 879 86 90, email address: ortiqovamaxliyo2@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz yozuvchisi Devid Lojning (1935–2025) “Small World” (Kichik dunyo, 1984) romanida global akademik muhit va ilmiy raqobatning badiiy ifodasi yoritiladi. Tadqiqot davomida romanda tasvirlangan xalqaro akademik makon, ilmiy konferensiyalar tizimi, akademik mobillik, ilmiy kapital va kasbiy raqobat masalalari zamonaviy adabiyotshunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilinadi. Asarda globallashuv jarayonlarining oliy ta’lim tizimiga ta’siri, akademiklarning ilmiy faoliyatning ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog‘liqligi tadqiq qilinadi. Tahlillarga ko‘ra, “Small World” (Kichik dunyo, 1984) romanining nafaqat akademik roman janrining yorqin namunasi, balki XX asr oxiridagi global ilmiy hamjamiyatning badiiy modeli sifatida ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rish mumkin.

Kalit so‘zlar: Devid Loj, Small World, akademik roman, globallashuv, ilmiy raqobat, akademik mobillik, konferensiya madaniyati, postmodernizm, akademik kapital.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab globallashuv jarayonlari jamiyatning barcha sohalariga, jumladan, t’lim va ilm-fan tizimiga ham sezilarli

ta'sirini ko'rsata boshladi. Oliy ta'lim sohasidagi bir qancha o'zgarishlar, jumladan, xalqaro ilmiy hamkorlikning kengayishi, akademik almashinuv dasturlarining rivojlanishi, global universitetlar va xalqaro konferensiyalar sonining ortishi akademik faoliyatning yangi bosqichga ko'tarilishiga va global tarmoqqa aylanishiga sabab bo'ldi. Ushbu ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar badiiy adabiyotda ham o'z ifodasini topdi. Ayniqsa, universitet roman janri akademik hayotni va ilmiy muhitni tasvirlash orqali zamonaviy jamiyatdagi muhim tendensiyalarni aks ettira boshladi. Devid Loj ingliz adabiyotida ushbu yangi janrning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan yozuvchi hisoblanadi.

Devid Loj (1935–2025) zamonaviy ingliz adabiyotining yirik namoyandalaridan biridir. Uning ijodida universitet muhiti markaziy mavzulardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchining "Changing Places" (Joylar almashinuvi, 1975), "Small World" (Kichik dunyo, 1984) va "Nice Work" (Ajoyib ish, 1988) romanlari akademik trilogiya sifatida e'tirof etiladi. Unda akademik hayotning turli jihatlarini, jumladan, akademiklarning kasbiy va shaxsiy hayoti hamda ilm-fan sohasidagi o'zgarishlar tasvirlangan.

"Small World" (Kichik dunyo, 1989) romani akademik roman janrining eng muvaffaqiyatli namunalariidan biri sifatida talqin qilinadi. Asarda dunyoning turli mamlakatlarida tashkil etilgan konferensiyalar, ilmiy uchrashuvlar va akademik safarlar fonida bir guruh olimlarning hayoti yoritiladi. Yozuvchi ushbu asarda ilmiy hamjamiyatni o'ziga xos "kichik dunyo" sifatida tasvirlaydi. Ushbu metafora zamonaviy akademik makonning globallashtgan xarakterini ifodalashga xizmat qiladi. Romanda ilmiy faoliyat nafaqat bilim yaratish jarayoni, balki murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida ham e'tirof etiladi. Akademiklar o'rtasidagi hamkorlik, raqobat, martaba uchun kurash va xalqaro nufuz orttirish istagi syujetning asosiy harakatlantiruvchi kuchlariga aylanadi. Shu sababli asar nafaqat badiiy, balki sotsiologik va madaniy jihatdan ham muhim tadqiqot obyekti sifatida ko'rsatiladi.

Bugungi kunda akademik mobillik, xalqaro reytinglar, ilmiy indekslar va global ilmiy integratsiya masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotgan bir paytda “Small World” romanini qayta o‘rganish zarurati yanada ortmoqda. Bunga sabab, asarda tasvirlangan ko‘plab hodisalar zamonaviy ilmiy makonda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan.

Devid Lojning “Small World” (Kichik dunyo, 1989) romani universitet roman janrining eng mukammal namunalaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Asar an‘anaviy kampus romanlaridan bir qancha o‘ziga xosliklari bilan ajralib turadi, jumladan, bunga asarning geografik ko‘lami va transmilliy xarakterini misol qilish mumkin. Boshqacha qilib aytganda klassik akademik romanlarda voqealar asosan bitta universitet hududida kechsa, “Small World” (Kichik dunyo, 1989) da akademik makon butun dunyo bo‘ylab kengayadi. Shu sababli ayrim tadqiqotchilar ushbu asarni “*global campus novel*” sifatida ham e‘tirof etadilar. Romanning syujeti asosan o‘zaro bog‘langan ko‘plab voqealar va qahramonlar taqdiri asosida qurilgan. Devid Loj asarda akademiklarning konferensiyadan konferensiyaga, mamlakatdan mamlakatga ko‘chib yurishini tasvirlar ekan, zamonaviy ilm-fanning xalqaro tus olganligini ko‘rsatishga harakat qilgan. Asarda universitet binolari emas, balki aeroportlar, mehmonxonalar, konferensiya zallari va ilmiy forumlar asosiy makonga aylanadi. Bu holat akademik hayotning globallashtiruvini ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Roman janrining yana bir muhim jihatlaridan biri uning satirik xarakterga egaligidir. Loj akademik muhitni ideal tarzda emas, balki barcha ziddiyatlari, kamchiliklari va paradokslari bilan tasvirlaydi. Masalan, olimlarning ilmiy maqolalar soni, konferensiyalardagi chiqishlari nufuzli tanishlari orqali baholanishi satirik ruhda yoritiladi. Natijada asar nafaqat akademik hayotning tavsifi, balki uning tanqidiy tahliliga ham aylanadi.

“Small World” (Kichik dunyo, 1989) romanining markaziy g‘oyalaridan biri ***global akademik makon konsepsiyasi*** hisoblanadi. Asar nomining o‘zi ham mazkur g‘oyani ifodalaydi. “Kichik dunyo” metaforasi zamonaviy akademik hamjamiyatning

o'zaro chambarchas bog'langan tizimga aylanganligini anglatadi. Roman qahramonlari turli qit'alarda yashasalar ham, ular bir xil konferensiyalarda uchrashadilar, bir-birlarining ilmiy ishlari bilan tanishadilar va yagona akademik tarmoqning tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritadilar. Muallif global akademik makonni bir necha darajada tasvirlaydi. Birinchi navbatda, bu geografik darajada namoyon bo'ladi. Asarda Buyuk Britaniya, AQSh, Turkiya, Yaponiya, Italiya va boshqa mamlakatlar ilmiy markazlari voqealar rivojlanadigan asosiy makonlarga aylanadi. Bunday keng geografik qamrov ilm-fanning milliy chegaralardan tashqariga chiqqanligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, global akademik makon kommunikativ tarmoq sifatida tasvirlanadi. Roman qahramonlari muntazam ravishda ilmiy muloqot olib boradilar. Konferensiyalar, seminarlar va simpoziumlar bilim almashishning muhim vositasiga aylanadi. Biroq muallif ushbu kommunikatsiyaning faqat ilmiy maqsadlargagina xizmat qilmasligini ham ko'rsatadi. Ko'pincha ilmiy uchrashuvlar yangi tanishuvlar, professional aloqalar va martaba imkoniyatlarini yaratadi. Uchinchidan, global akademik makon iqtisodiy va madaniy kapital almashinuvi maydoni sifatida ham namoyon bo'ladi. Akademiklar o'z ilmiy nufuzi, maqolalari, grantlari va xalqaro aloqalari orqali akademik kapital to'playdilar. Bu esa ilmiy faoliyatning bozor munosabatlariga yaqinlashayotganligini anglatadi.

Asardagi akademik mobillik va transmilliy identifikatsiya haqida gap ketganda shuni yoritish lozimki, roman qahramonlarining deyarli barchasi doimiy harakatda bo'ladi. Ular bir konferensiyadan boshqasiga, bir mamlakatdan boshqasiga safar qiladilar. Ushbu jarayon zamonaviy **akademik mobillik** fenomenining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Akademik mobillik romanda faqat geografik harakat sifatida emas, balki kasbiy muvaffaqiyatning muhim omili sifatida tasvirlanadi. Konferensiyalarda faol qatnashadigan, xalqaro ilmiy aloqalarga ega bo'lgan olimlar ko'proq tan olinadi. Natijada akademik faoliyatning qiymati ko'pincha uning xalqaro ko'lamiga qarab baholanadi.

Asarda **transmilliy identifikatsiya** masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Roman qahramonlari o‘zlarini faqat muayyan mamlakat vakili sifatida emas, balki global akademik hamjamiyat a‘zosi sifatida his qiladilar. Ular uchun ilmiy hamkorlik milliy chegaralardan ko‘ra muhimroq ahamiyat kasb etadi. Muallif akademik mobillikning insoniy oqibatlarini ham ko‘rsatadi. Doimiy safarlar va vaqtinchalik yashash joylari qahramonlarning shaxsiy hayotiga ta‘sir qiladi. Ular oila, muhabbat va kasbiy faoliyat o‘rtasida muvozanat saqlashga harakat qiladilar. Shu tariqa roman globallashuvning insoniy o‘lchamlarini ham ochib beradi.

Lojning “Small World” (Kichik dunyo, 1989) romanida **ilmiy konferensiya poetikasi** syujetni harakatga keltiruvchi asosiy elementlardan biridir. Ular nafaqat voqealar sodir bo‘ladigan makon, balki muhim badiiy ramz sifatida ham xizmat qiladi. Konferensiyalar romanda ilmiy hayotning markaziy instituti sifatida tasvirlanadi. Aynan shu joylarda qahramonlar uchrashadilar, yangi aloqalar o‘rnatadilar va professional imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Muallif konferensiyalarni zamonaviy akademik dunyoning mikromodeli sifatida ko‘rsatadi. Asarda konferensiyalarning rasmiy va norasmiy tomonlari o‘rtasidagi tafovut ham yaqqol aks ettirilgan. Rasmiy ma‘ruzalar va ilmiy munozaralar muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ko‘plab muhim qarorlar norasmiy suhbatlar davomida qabul qilinadi. Mehmonxonalar, restoranlar va sayohatlar konferensiya madaniyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Loj konferensiyalarni ma‘lum ma‘noda spektaklga ham qiyoslaydi. Olimlar auditoriya oldida o‘z ilmiy kompetensiyalarini namoyish etadilar. Bunda ilmiy bilim bilan bir qatorda notiqlik mahorati, tashqi ko‘rinish va kommunikativ qobiliyat ham muhim rol o‘ynaydi. Konferensiya madaniyatining bunday tasviri akademik faoliyatning ko‘p qirrali tabiatini ochib beradi. Ilm-fan faqat laboratoriya yoki kutubxonadagi tadqiqotlar bilan cheklanmaydi; u ijtimoiy va madaniy munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muallif romanda **akademik kapital va ilmiy nufuz fenomeniga** ham alohida e‘tibor qaratgan. Romandagi qahramonlar doimiy ravishda akademik kapital

to'plashga intiladilar. Ushbu kapital ilmiy maqolalar, monografiyalar, konferensiyalar, mukofotlar va professional aloqalar orqali shakllanadi. Akademik kapital qahramonlarning universitet tizimidagi mavqeini belgilaydi. Nufuzli olimlar ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladilar, ularning fikrlari jiddiyroq qabul qilinadi va ular ilmiy hamjamiyatda katta ta'sir kuchiga ega bo'ladilar. Loj bu tushunchaning nisbiy xarakterini ham ko'rsatadi. Ba'zan ilmiy obro' haqiqiy ilmiy natijalardan ko'ra ko'proq tashqi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu esa akademik dunyoda muayyan tengsizliklarni yuzaga keltiradi. Romanda ilmiy nufuzning xalqaro miqyosdagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Mahalliy darajadagi muvaffaqiyat yetarli emas; olim xalqaro akademik maydonda ham tan olinishi kerak. Shu sababli qahramonlar doimiy ravishda o'z ilmiy obro'larini kengaytirishga intiladilar.

Asarda *ilmiy raqobat va martaba kurashining badiiy talqini* markaziy mavzulardan biri hisoblanadi. Devid Loj akademik muhitni bilimlar almashinuvi maydoni sifatida tasvirlash bilan birga, uni turli manfaatlar to'qnashadigan ijtimoiy makon sifatida ham ko'rsatadi. Asarda ilmiy faoliyatning idealistik va pragmatik jihatlari o'rtasidagi ziddiyat doimiy ravishda namoyon bo'ladi. Bir tomondan, akademiklar ilmiy haqiqatni izlash, yangi bilim yaratish va fan taraqqiyotiga hissa qo'shishni maqsad qiladilar. Ikkinchi tomondan esa, ular ilmiy mavqe, kasbiy e'tirof va yuqori lavozimlar uchun kurash olib boradilar. Roman qahramonlarining aksariyati o'z faoliyatini xalqaro miqyosda tan oldirishga intiladi. Ilmiy konferensiyalarda qatnashish, nufuzli jurnallarda maqolalar chop ettirish va mashhur olimlar bilan aloqalar o'rnatish akademik muvaffaqiyatning muhim mezonlari sifatida talqin qilinadi. Muallif ushbu holat orqali zamonaviy ilm-fan tizimining raqobatbardosh tabiatini ochib beradi. Asarda ilmiy raqobat ko'pincha yashirin shaklda namoyon bo'ladi. Olimlar bir-birlarini ochiq tanqid qilmasalarda, o'z ilmiy qarashlarini ustun qo'yishga va professional maydonda yetakchi mavqeni egallashga harakat qiladilar. Bunday raqobat ilmiy bahslar, konferensiyalardagi chiqishlar va norasmiy suhbatlar orqali ifodalanadi. Loj ilmiy raqobatning ba'zi salbiy oqibatlarini ham ko'rsatadi. Ayrim hollarda ilmiy faoliyat mazmunidan ko'ra uning tashqi ko'rinishi muhimroq

bo‘lib qoladi. Olimlarning e’tibori yangi ilmiy g‘oyalar yaratishdan ko‘ra ko‘proq o‘z nufuzini mustahkamlashga qaratiladi. Bu esa ilm-fanning tijoratlashuvi va institutsionallashuvi bilan bog‘liq zamonaviy muammolarni yoritishga xizmat qiladi.

Romanning yana bir muhim jihatlaridan biri akademik muhitdagi **gender munosabatlarining tasviridir**. XX asrning ikkinchi yarmida universitetlarda ayol olimlarning mavqei sezilarli darajada oshgan bo‘lsada, akademik muhit hali ham ma’lum darajada erkaklar hukmron bo‘lgan tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Asardagi ayol qahramonlar nafaqat romantik syujetning bir qismi, balki akademik hayotning faol ishtirokchilari sifatida ham tasvirlangan. Ular ilmiy munozaralarda qatnashadi, tadqiqotlar olib boradi va professional faoliyatda erkaklar bilan teng raqobatlashadi. Shu bilan birga, muallif akademik muhitda mavjud bo‘lgan ayrim stereotiplarni ham ochib beradi. Gender masalasi romanning postmodern xususiyatlari bilan ham bog‘liq. Muallif an’anaviy jinsiy rollarni qayta ko‘rib chiqadi va akademik faoliyatda ayollarning o‘rnini yangicha talqin qiladi. Natijada asar zamonaviy jamiyatdagi gender transformatsiyalarining badiiy ifodasiga aylanadi.

Devid Loj ijodi ko‘pincha **postmodern adabiyot** bilan bog‘lanadi. “Small World” romani ham postmodern estetikaning ko‘plab xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Asarda intertekstuallik, parodiya, ironik yondashuv va janrlararo sintez kabi postmodern elementlar keng qo‘llanilgan. **Intertekstuallik** romanning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Tadqiqotchilar asarda o‘rta asr ritsarlik romanlari, xususan, “Muqaddas Graal” haqidagi afsonalar bilan bog‘liq ko‘plab ishoralarni aniqlaganlar. Qahramonlarning doimiy sayohatlari va izlanishlari ritsarlik sarguzashtlarini eslatadi. Biroq muallif ushbu an’anaviy motivlarni zamonaviy akademik muhitga moslashtiradi.

Asarning yana bir muhim xususiyatlaridan biri **ironiya va satira**dir. Loj akademik dunyoni mutlaq jiddiylilik bilan emas, balki tanqidiy va kulgili rakursdan tasvirlaydi. Konferensiyalar, ilmiy bahslar va professorlar o‘rtasidagi munosabatlar

ba'zan komik tus oladi. Biroq ushbu kulgi ortida jiddiy ijtimoiy va madaniy muammolar yashiringan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlardan tashqari, bu asar **akademik globallashuvning badiiy modeli** sifatida ham talqin qilinadi. Asarda tasvirlangan ko'plab hodisalar bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolgan. Xalqaro konferensiyalar, ilmiy mobillik, akademik reytinglar va ilmiy nufuz uchun kurash zamonaviy universitet tizimining ajralmas qismiga aylangan. Loj o'z davridan ilgarilab, akademik globallashuvning istiqbollarini badiiy shaklda tasvirlab bergan. Romanda ilmiy hamjamiyat yagona global tarmoq sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tarmoq ichida geografik masofalar qisqaradi va akademiklar o'rtasidagi aloqalar tobora kuchayadi. Biroq muallif globallashuvni biryoqlama ijobiy hodisa sifatida baholamaydi. U akademik faoliyatning standartlashuvi, ilmiy nufuzning tijoratlashuvi va raqobatning kuchayishi kabi muammolarga ham e'tibor qaratadi. Shu jihatdan roman zamonaviy oliy ta'lim tizimining tanqidiy tahlili sifatida ham ahamiyatlidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy-tipologik, struktur-semiotik, sotsiologik va interpretativ tahlil metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy-tipologik metoddan foydalanish "Small World" (Kichik dunyo, 1989) romanining akademik roman janridagi o'rni aniqlashga xizmat qildi. Struktur-semiotik yondashuv asarning badiiy tuzilishi, obrazlar tizimi va ramziy qatlamlari tahlil qilishga yordam berdi. Sotsiologik metod akademik muhitning ijtimoiy model sifatidagi xususiyatlarini o'rgandi. Interpretativ tahlil esa romanning mazmuniy qatlamlarini ochib berishda qo'llanildi.

Natijalar va muhokama. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Devid Lojning "Small World" (Kichik dunyo, 1989) romani akademik roman janrining yangi bosqichini boshlab berganligini ko'rsatadi. Asar an'anaviy kampus romanlari doirasidan chiqib, global akademik makonni tasvirlashga muvaffaq bo'lgan. Romanning asosiy konseptual markazi globallashuv g'oyasi ekanligi aniqlandi. Muallif ilmiy hamjamiyatni milliy chegaralardan tashqarida mavjud bo'lgan transmilliy tizim

sifatida tasvirlaydi. Ushbu tizimning asosiy komponentlari sifatida konferensiyalar, akademik mobillik va xalqaro ilmiy aloqalar namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ilmiy raqobat romanning syujet qurilishida muhim rol o'ynashi ham aniqlandi. Akademik muvaffaqiyat uchun kurash qahramonlarning xatti-harakatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, muallif ilmiy faoliyatning insoniy jihatlarini ham unutmaydi va akademik hayotni murakkab ijtimoiy hodisa sifatida ko'rsatadi. Postmodern poetikaning qo'llanilishi romanning badiiy ta'sirchanligini kuchaytirgan. Intertekstuallik, satira va ironiyaning uyg'unlashuvi akademik muhitning ko'p qirrali tabiatini ochib berishga xizmat qilgan.

Xulosa. Devid Lojning "Small World" (Kichik dunyo, 1989) romani zamonaviy ingliz adabiyotidagi eng muhim akademik romanlardan biri hisoblanadi. Asarda global akademik makon, ilmiy raqobat va akademik mobillik masalalari keng qamrovda yoritilgan. Muallif ilmiy hamjamiyatni o'zaro bog'langan transmilliy tizim sifatida tasvirlaydi va uning ichki mexanizmlarini badiiy vositalar orqali ochib beradi. Tahlillarga ko'ra, roman akademik globallashuv jarayonlarini aks ettiruvchi muhim adabiy manba hisoblanadi. Asarda konferensiyalar, ilmiy safarlar va xalqaro hamkorliklar zamonaviy ilm-fanning asosiy xususiyatlari sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, ilmiy raqobat, akademik kapital va professional nufuz masalalari ham chuqur tahlil qilinadi. "Small World" romanining badiiy qiymati uning akademik muhitni realistik va satirik usullar orqali tasvirlay olganligida namoyon bo'ladi. Muallif ilm-fan olamining nafaqat yutuqlarini, balki muammolari va qarama-qarshiliklarini ham ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. Shunday qilib, "Small World" (Kichik dunyo, 1989) nafaqat akademik roman janrining yorqin namunasi, balki XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi global akademik jarayonlarning badiiy modeli sifatida ham muhim ilmiy va estetik ahamiyatga ega asar hisoblanadi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Abrams, M. H., & Harpham, G. G. (2015). *A glossary of literary terms* (11th ed.). Cengage Learning.

2. Bourdieu, P. (1988). *Homo academicus*. Stanford University Press.
3. Connor, S. (2001). *The English novel in history: 1950–1995*. Routledge.
4. Eagleton, T. (2008). *Literary theory: An introduction*. University of Minnesota Press.
5. Hutcheon, L. (1988). *A poetics of postmodernism*. Routledge.
6. Jameson, F. (1991). *Postmodernism, or, the cultural logic of late capitalism*. Duke University Press.
7. Lodge, D. (1984). *Small World: An academic romance*. Secker & Warburg.
8. Lodge, D. (1988). *Modern criticism and theory*. Longman.
9. Lodge, D. (1996). *The practice of writing*. Penguin Books.
10. Moseley, M. (2010). *Understanding David Lodge*. University of South Carolina Press.